

TURLI YOSHDAGI TALABA YIGITLARDA OTALIK XULQ-ATVORI SHAKLLANISH DARAJASINI EKSPERIMENTAL O‘RGANISH

Jumaniyozov Yunus Shodurdi o‘g‘li-
Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch
davlat universiteti mustaqil tadqiqotchisi

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada talabalik davrida otalik ustanovkalari ta’siri o‘rganiladi. Tadqiqotda E.S.Sheffer va R.K.Bellning “Ota-onalik ustanovkalari va munosabatlarini aniqlash” metodikasi asosida talabalar o‘z oldiga qo‘ygan maqsadlarining mazmuni, barqarorligi va motivatsion tarkibiy qismlari tahlil qilinadi.

***Kalit so‘zlar:** verbalizatsiya, oilaga qaramlik, otalik ustanovkalari, agressiyani bostirish, xavotirlilik, hayot natijadorligi, haddan tashqari g‘amxo‘rlik.*

ABSTRACT

This article examines the impact of paternal attitudes during student life. The study analyzes the content, stability, and motivational components of students' goals based on the methodology of E.S. Sheffer and R.K. Bell's "Identifying Parental Attitudes and Relationships."

***Keywords:** verbalization, family dependence, paternal attitudes, suppression of aggression, anxiety, life effectiveness, excessive care.*

KIRISH

Jahonda yoshlarni oilaga, ota-onalikka tayyorlash global masala sifatida qarab kelinmoqda, so‘nggi bir necha o‘n yilliklarda ushbu muammo global o‘zgarishlar bilan ko‘zga tashlanmoqda. Bu o‘zgarishlar jamiyatning barcha jabhalariga sezilarli darajada ta’sir ko‘rsatib, shaxsning psixologik hodisalari va jarayonlarda ham o‘z aksini topmoqda. Ushbu jarayonlarning mohiyatini ochib bergan jamiyatshunos psixologlar qadriyatlar va guruh me’yorlarining tubdan o‘zgarganini, ijtimoiy rollar mazmunining yangilanayotganini, xulq-atvorning o‘zgaruvchanligi va xilma-xilligi kuchayganini ta’kidlamodalar. Shaxsning o‘zini namoyon etishi nuqtayi nazaridan muhim sohalardan biri oila sohasidir.[1]

Dunyoda bugungi kunda oilaviy munosabatlar sezilarli darajada o‘zgarib, yangicha mazmun kasb etmoqda. Bu bir tomondan, oila tuzilishi shakllarining o‘zgarishi, rasmiy nikohsiz hamkorlikning keng tarqalishi va nikohdan tashqari tug‘ilishlar sonining ortishi bilan, boshqa tomondan esa, er-xotin o‘rtasidagi hissiy va ruhiy yaqinlik qadriyatining oshishi, oilaviy majburiyatlarni teng huquqlilik asosida

taqsimlash tendensiyalarining kuchayishi bilan namoyon bo‘lmoqda. O‘zgarish tendensiyalari ota-onalik sohasiga ham xos bo‘lib, ushbu voqealik xulq-atvor yo‘nalishlari asosida aniq rejalar tuzishga zamin yaratadi.[3]

Ko‘pincha ota-onalar va bolalar o‘rtasidagi muvaffaqiyatsiz munosabatlarning xususiyatlarini va bu munosabatlardagi keskinlik sohalarini tushunish uchun kalit bo‘lgan individual tarozilarni tahlil qilish alohida qiziqish uyg‘otadi. Aynan ushbu metodika psixodiagnostik suhbatni tayyorlash va o‘tkazishda yordam beradi.[2]

**Turli yoshdagi talaba yigitlarda PARI metodikasi natijalar tahlili
(Mann Uitni mezoni bo‘yicha n=480)**

Shkalalar	Yoshi	N	O‘rtacha rang	U	P
Verbalizatsiya	O‘spirinlik	259	124,29	7077,000	0,000**
	Ilk yetuklik	221	169,98		
	Jami	480			
Haddan tashqari g‘amxorlik	O‘spirinlik	259	130,99	8136,000	0,002**
	Ilk yetuklik	221	161,89		
	Jami	480			
Oilaga qaramlik	O‘spirinlik	259	137,66	9190,000	0,098
	Ilk yetuklik	221	153,85		
	Jami	480			
Irodayiv sifatlarini bostirish	O‘spirinlik	259	162,39	8071,500	0,001**
	Ilk yetuklik	221	130,59		
	Jami	480			
O‘zini qurbon qilish	O‘spirinlik	259	133,14	8475,000	0,008**
	Ilk yetuklik	221	159,31		
	Jami	480			
Xafa qilishdan qo‘rqish	O‘spirinlik	259	132,91	8439,500	0,006**
	Ilk yetuklik	221	159,58		
	Jami	480			
Oilaviy nizolar	O‘spirinlik	259	132,86	8431,500	0,006**
	Ilk yetuklik	221	159,64		
	Jami	480			
Xavotirlik	O‘spirinlik	259	159,33	8472,000	0,008**
	Ilk yetuklik	221	133,12		
	Jami	480			
Xaddan tashqari qattiqo‘llik	O‘spirinlik	259	140,73	9674,000	0,337
	Ilk yetuklik	221	150,15		
	Jami	480			
Oiladagi ta’sirlarni bartaraf qilish	O‘spirinlik	259	125,47	7262,500	0,000**
	Ilk yetuklik	221	168,56		
	Jami	480			

Ota-onaning xaddan tashqari xukmronligi	O'spirinlik	259	127,57	7595,000	0,000**
	Ilk yetuklik	221	166,02		
	Jami	480			
Agressiyani bostirish	O'spirinlik	259	146,92	10046,000	0,666
	Ilk yetuklik	221	142,69		
	Jami	480			
Oiladagi roldan norozi	O'spirinlik	259	141,34	9770,000	0,410
	Ilk yetuklik	221	149,42		
	Jami	480			
Hamkorlik	O'spirinlik	259	138,38	9302,500	0,136
	Ilk yetuklik	221	152,99		
	Jami	480			
Bolaning faolligini rivojlantirish	O'spirinlik	259	134,89	8751,500	0,023*
	Ilk yetuklik	221	157,19		
	Jami	480			
Mojarolardan qochish	O'spirinlik	259	159,46	8454,500	0,007**
	Ilk yetuklik	221	133,01		
	Jami	480			
Tuzmush o'rtog'ining befarqligi	O'spirinlik	259	159,15	8495,000	0,008**
	Ilk yetuklik	221	133,27		
	Jami	480			
Jinsga xos xususiyatlarni bostirish	O'spirinlik	259	129,67	7927,500	0,001**
	Ilk yetuklik	221	163,48		
	Jami	480			
Onaning hukmronligi	O'spirinlik	259	138,09	9257,500	0,121
	Ilk yetuklik	221	153,33		
	Jami	480			
Bola dunyosiga chegaradan ortiq aralashish	O'spirinlik	259	156,57	8833,000	0,031*
	Ilk yetuklik	221	135,41		
	Jami	480			
Tenglashtirilgan munosabat(gender tenglik)	O'spirinlik	259	124,35	7087,000	0,000**
	Ilk yetuklik	221	169,90		
	Jami	480			
Bolaning rivojlanishini tezlashtirishga intilish	O'spirinlik	259	136,93	9074,500	0,070
	Ilk yetuklik	221	154,73		
	Jami	480			
Oilada otaning mustaqilligi yoq	O'spirinlik	259	158,28	8609,500	0,013*
	Ilk yetuklik	22	133,99		
	Jami	48	0		

Izoh: **p<0,01; *p<0,05

Turli yoshdagi yigitlarda PARI metodikasi natijalarini tahlil qilganda ishonchli farqlar mavjudligi aniqlandi. Tahlil natijalariga ko'ra, verbalizatsiya shkalasida ishonchli tafovutlar borligi ma'lum bo'ldi ($U=7077,000$; $p<0,01$). Ilk yetuklik davridagi yigitlarda o'spirinlik yoshidagi yigitlarga qaraganda verbalizatsiya, ya'ni fikrlarni so'zlar bilan aniq ifodalash xususiyati yuqoriroq bo'lar ekan.

Ilk yetuklik davridagi talaba yigitlar fikrlarini, his-tuyg'ularni, g'oyalarni so'zlar orqali ifodalashni afzal ko'rishar ekan. Bu jarayonda talaba yigitlar o'z qarashlarini og'zaki nutq orqali amalga oshirishga harakat qiladilar. Shuningdek, talaba yigitlar muloqatida oiladagi hayotni noto'g'ri deb o'ylasalar ham, shaxs o'z oilasidagi hayot haqidagi fikrlarini aytishi uchun rag'batlantirilishi kerak deb hisoblashar ekan.

Haddan tashqari g'amxo'rlik shkalasida ishonchli tafovutlar borligi ma'lum bo'ldi ($U=8130,0$; $p<0,01$). Ilk yetuklik davridagi talaba yigitlarda g'amxo'rlik o'spirinlik yoshidagi talaba yigitlarga qaraganda yuqoriroq bo'lar ekan. Bolalalarni og'ir uy ishlarini bajarish bilan jazolamaslik kerak, aks holda bolada har qanday jismoniy mehnatdan qochish, jismoniy mehnat bilan shug'ullashni o'ziga ep ko'rmaslik kabi salbiy sterotiplar paydo bo'lishiga olib kelar ekan.

Irodaviy sifatlarni bostirish shkalasida ishonchli tafovutlar borligi ma'lum bo'ldi ($U=8071,0$; $p<0,01$). O'spirinlik yoshidagi talaba yigitlarda irodani bostirish yigitlarga qaraganda ilk yetuklik davridagi haddan tashqari g'amxorlik yuqoriroq bo'lar ekan. O'spirinlik yoshidagi talaba yigitlar ota-onalar bolalarning xohishiga qarshi ish tutishga majbur bo'lishadi, bolalar onalik g'amxo'rlikiga muhtoj, ba'zida esa undan mahrum bo'lishadi, aqlli ota bola boshliqlarini hurmat qilishni o'rgatishi lozim deb bilishadi.

O'zini qurbon qilish shkalasida ishonchli tafovutlar borligi ma'lum bo'ldi ($U=8071,0$; $p<0,01$). Ilk yetuklik davridagi talaba yigitlarda o'zini qurbon qilish o'spirinlik yoshidagi yigitlarga qaraganda haddan yuqoriroq bo'lishi ma'lum bo'ldi. Bunda ushbu yoshdagi talaba yigitlar bolalar ota-onalarining ular uchun juda ko'p narsalar qilayotganini tushunishlari, ota bolasi uchun baxtni qurbon qilishi kerakligi, juda kam ayollar farzandlarining tarbiyasiga sarflangan mehnatlari uchun bolalaridan minnatdorchilik olishadi.

Xafa qilishdan qo'rqish shkalasida ishonchli tafovutlar borligi ma'lum bo'ldi ($U=8439,50$; $p<0,01$) Ilk yetuklik davridagi talaba yigitlarda xafa qilishdan qo'rqish o'spirinlik yoshidagi yigitlarga qaraganda haddan yuqoriroq bo'lishi ma'lum bo'ldi. Bunga ko'ra, ilk yetuklik davridagi talaba yigitlar kichkina bolani yurish vaqtida, u yiqilmasligi uchun uni doimo mustahkam tutish kerakligi har doim ona o'zini aybdor

his qilishi, ko'plab onalar farzandlariga kichik vazifalarni berishdan qo'rqishadi deb bilishar ekan.

Oilaviy nizolar shkalasida ishonchli tafovutlar borligi ma'lum bo'ldi ($U=8431,50$; $p<0,01$) Ilk yetuklik davridagi talaba yigitlarda oilaviy nizolar o'spirinlik yoshidagi yigitlarga qaraganda haddan yuqoriroq bo'lishi ma'lum bo'ldi. Bunda ilk yetuklik davridagi talaba yigitlar er-xotin o'rtasida qarama-qarshi fikrlar bo'lsa, ularning janjallashishi tabiiy holat ekanligi, yosh er-xotinlar, his-tuyg'ularining kuchiga qaramay, har doim o'zaro nizo va tushunmovchiliklarga duch kelishlari mumkin.

Xavotirlik shkalasida ishonchli tafovutlar borligi ma'lum bo'ldi ($U=8472,00$; $p<0,01$) O'spirinlik yoshidagi talaba yigitlarda xavotirlik ilk yetuklik davridagi yigitlarga nisbatan yuqoriroq bo'lishi ma'lum bo'ldi. O'spirinlik yoshidagi talaba yigitlar bola o'sgach, u ota-onalarini qat'iy tarbiyasi uchun rahmat aytadi, ola bilan qat'iy intizom tarbiyasi kuchli xarakterni rivojlantiradi deyishadi.

Oiladagi ta'sirlarni bartaraf qilish shkalasida ishonchli tafovutlar borligi ma'lum bo'ldi ($U=7262,50$; $p<0,01$) Ilk yetuklik davridagi talaba yigitlarda oiladagi tasirlarni bartaraf qilish o'spirinlik yoshidagi yigitlarga qaraganda haddan yuqoriroq bo'lishi ma'lum bo'ldi. Bunda ilk yetuklik davridagi talaba yigitlarda bola ota-onalari haqida tanqidiy fikrlarni eshitmasligi, bolalar ota-onalarining fikriga shubha qilishlari kerak emas degan fikrlar bo'ladi.

Ota-onalar xaddan tashqari hukmronligi shkalasida ishonchli tafovutlar borligi ma'lum bo'ldi ($U=7595,50$; $p<0,001$) Ilk yetuklik davridagi talaba yigitlarda ota-onalar xaddan tashqari vakol o'spirinlik yoshidagi yigitlarga qaraganda haddan yuqoriroq bo'lishi ma'lum bo'ldi. Ilk yetuklik davridagi talaba yigitlar bola ota-onasini boshqa kishilardan ko'ra ko'proq hurmat qilishi kerak, chunki ota-onalar bolalarda to'liq ishonchni tarbiyalashlari lozim deyisahdi.

Bolaning faolligini rivojlantirish vakol shkalasida ishonchli tafovutlar borligi ma'lum bo'ldi ($U=8751,50$; $p<0,001$). Ilk yetuklik davridagi yigitlarda bolaning faolligini rivojlantirish o'spirinlik yoshidagi yigitlarga qaraganda haddan yuqoriroq bo'lishi ma'lum bo'ldi.

Mojarolardan qochish shkalasida ishonchli tafovutlar borligi ma'lum bo'ldi ($U=8454,50$; $p<0,001$). Ilk yetuklik davridagi yigitlarga qaraganda mojarolardan qochish o'spirinlik yoshidagi talaba yigitlarda yuqoriroq bo'lishi ma'lum bo'ldi. Bunga ko'ra o'spirinlik yoshidagi talaba yigitlar ota-onalar bolalarining muammolari haqida gaplansalar, ota-onalarini kichik muammolar bilan qiynashadi deb bilishadi.

Turmush o'rtog'ining befarqligi shkalasida ishonchli tafovutlar borligi ma'lum bo'ldi ($U=8495,50$; $p<0,01$). O'spirinlik yoshidagi talaba yigitlarda turmush

o‘rtog‘ining befarqligi ilk yetuklik davridagi yigitlarga qaraganda salbiy ta‘sir qilishi ma‘lum bo‘ldi.

Jinsga xos xususiyatlarni bostirish shkalasida ishonchli tafovutlar borligi ma‘lum bo‘ldi ($U=7927.0$; $p<0,01$). Ilk yetuklik davridagi talaba yigitlarda jinsga xos xususiyatlarni bostirish o‘spirinlik yoshidagi yigitlarga qaraganda haddan yuqoriroq bo‘lishi ma‘lum bo‘ldi. Bunda o‘g‘il bola ko‘proq jins haqida savollar bersa, bu savol bilan bog‘liq muammolar mavjudligini bildirishi, jinsiy muammolar eng qiyin holatlardan biriligi sifatida qaraladi.

Bola dunyosiga chegaradan ortiq aralashish shkalasida ishonchli tafovutlar borligi ma‘lum bo‘ldi ($U=8833,27$; $p<0,01$). O‘spirinlik yoshidagi talaba yigitlarda bola dunyosiga aralashish ilk yetuklik davridagi yigitlar yigitlarga qaraganda yuqoriroq bo‘lishi ma‘lum bo‘ldi. Bunga ko‘ra o‘spirinlik yoshidagi talaba yigitlar otaning majburiyati bolalarining yashirin fikrlarini bilish, bola onaning bir qismi bo‘lganligi sababli, u uning hayoti haqidagi barcha ma‘lumotlarga ega bo‘lishi kerakligi, bola ota-onalaridan sir tutmasligi lozim deb bilishlari mumkin..

Tenglashtirilgan munosabat(gender tenglik) shkalasida ishonchli tafovutlar borligi ma‘lum bo‘ldi ($U=7087.0$; $p<0,01$). Ilk yetuklik davridagi talaba yigitlarda tenglashtirilgan munosabat o‘spirinlik yoshidagi yigitlarga qaraganda haddan tashqari yuqoriroq bo‘lishi ma‘lum bo‘ldi. Ilk yetuklik davridagi talaba yigitlar bola muammolari haqida ochiq gapirayotgan ota-onalar, ularning ijtimoiy rivojlanishiga tezroq yordam berishadi, ota-onalar bilan hazil qilish va kulish bolaga ularning maslahatlarini qabul qilishni osonlashtiradi deb bilishadilar.

Oilada otaning mustaqilligi yo‘qligini aniqlovchi shkalasida ishonchli tafovutlar borligi ma‘lum bo‘ldi ($U=8609.50$; $p<0,01$). Ilk yetuklik davridagi talaba yigitlarga o‘spirinlik yoshidagi yigitlarda tenglashtirilgan munosabatga qaraganda yuqoriroq bo‘lishi, ma‘lum bo‘ldi. Bunda oilada otaning mustaqilligi yo‘q deydigan talaba yigitlar ota farzandlariga nisbatan ortiqcha mas‘uliyat hissi bilan yuklanmasligi, aqlli ona bola tug‘ilishidan oldin va keyin uning yaxshi sharoitlarda bo‘lishini ta‘minlash uchun barcha imkoniyatlarini ishga solishi kerakligi, ko‘pgina ayollar tug‘ilgandan keyin dam olish uchun ko‘proq vaqtga muhtoj deb bilishar ekan.

XULOSA

1. Talabalik davrida otalik xulq-atvorini ta‘minlaydig, xulq-atvor resurslarining asosiy psixologik omillaridan iborat bo‘lib, otalik xulq-atvori shakllanishining psixologik xususiyatlarini chuqurroq o‘rganadigan modellar ham mavjud
2. Talabalik davrida otalik xulq-atvori shakllanishining psixologik xususiyatlari farzandlar va ota munosabatlarining ijobiy kechishi, otaning bola hayotidagi faol

ishtiroki onalik bilan solishtirganda otalikning kamroq biologik va ko‘proq ijtimoiy-oilaviy determinantligi, talaba yigitlarda otalikka nisbatan rol kutilmalarida aniqlik kamligi va otaning bola hayotidagi ishtirok darajasi onaning bola hayotidagi ishtirok darajasi bilan o‘zaro bog‘liqligi isbotlandi;

3. Turli yoshdagi talaba yigitlarda ota bilan hamkorlikning ijobiy kechishi ularda “maqsad sari harakat” qilishning ortishiga, “natijaga intilish” ko‘rsatgichi oshishiga, “faollikni rivojlantirish” mexanizmiga, kutilmagan “mojorolardan qochish” kabi psixik omillar bilan bog‘liqligi dalillandi.[4]

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Методика PARI (Е.С.Шефер, Р.К.Белл; адаптация Т.В.Нещерет) / Психологические тесты. Ред. А.А.Карелин - М., 2001, Т.2., С.130-143.
2. Большая энциклопедия психологических тестов / Ред. А.А.Карелин - М.:Эксмо, 2007, С.298-305.
3. Психология семьи: Хрестоматия/ Редактор-составитель Д. Я. Райгородский. Самара, 2002.
4. Олифинович Н. И., Зинкевич-Куземкина Т. А., Велента Т. Ф. Семейные кризисы: феноменология, диагностика, психологическая помощь. Москва; Обнинск, 2005.